

# **BUXORO AN'ANAVIY ZARGARLIK SAN'ATINING DAVOMCHISI**

**Kadirov Arif Maxmudovich, Jumayev Qoryog'di Juraevich,  
Buxoro davlat universiteti professorlari**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxoro an'anaviy zargarlik san'ati, uning hozirgi ahvoli hamda Alisher Haydarovning ijodiy faoliyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** an'anaviy zargalik, A.Haydarov, ko'rgazmlar, ijodiy ishlar

**CONTINUATION OF BUKHARA TRADITIONAL JEWELRY ART**  
**Kadyrov Arif Makhmudovich, Jumaev Koryogdi Juraevich,**  
**Professors of Bukhara State University**

**Annotation:** This article describes the traditional jewelry art of Bukhara, its current state, and the creative work of Alisher Haydarov.

**Key words:** traditional jewelry, A. Haydarov, exhibitions, creative works

## **ПРОДОЛЖЕНИЕ БУХАРСКОГО ТРАДИЦИОННОГО ЮВЕЛИРНОГО ИСКУССТВА**

**Кадыров Ариф Махмудович, Джумаев Корёгли Джураевич,  
Профессора Бухарского государственного университета**

**Аннотация:** В данной статье описывается традиционное ювелирное искусство Бухары, его современное состояние, а также творчество Алишера Хайдарова.

**Ключевые слова:** традиционные украшения, А. Хайдаров, выставки, творческие работы.



Zargarlik hunarining qadimgi markazlaridan biri Buxoro maktabidir. Qadimshunoslar tomonidan Buxoro vohasidan topilgan zebi ziynat taqinchoqlarning qadimgi namunalari eramizdan avvalgi III ming yilliklarga

borib taqaladi. "Zamon bobo madaniyati" deb fanga kirgan yodgorliklar orasida qimmatbaho tosh va oltindan tayyorlangan ayollar taqinchoqlari bunga yorqin dalil bo'ldi. Mil. avv. II-asrga taalluqli Quyumozor hududidan topilgan ayollar klyimi tugmalari va ayollar sirg'asi oltindan yasalgan bo'lib, turmalin toshi bilan bezatilgan.




O'rta asrlar va ayniqsa XIX asrga kelib zargarlik san'ati Saroy hunarmandchiligi darajasiga ko'tarildi. XIXasr oxirlarida hunarmandchilik markazi Buxoroda 400 dan ortiq usta zargarlar faoliyati olib borishgan. Ulardan 20 tasi saroy hunarmandlari bo'lib Ark qo'rg'onida Qushbegi bolo – yuqori qushbegi hovlisida saroy ayyonlari va oilasi uchun qimmatbaho buyum va taqinchoqlar tayyorlangan . Mohir saroy zargarlari Usta Nasrulloboy, Usta Nabi, Qosimjon Miroqov, Sadreddin binpochcho va boshqalar mashhur bo'lishgan. Buxoro hunarmandlarining yasagan buyumlarini nafaqat mahalliy aholi, qolaversa, Buyuk Ipak yo'li orqali G'arb va Sharq mamlakatlarida sevib harid qilishgan.Savdo yo'li chorrahasida joylashgan Buxoroi Sharif shahrining qadimgi markazida maxsus yopiq bozor "Toqi zargaron" zargarlar toqining faoliyat ko'rsatishi ham zargarlik bu yerda yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi. Bu yerda joylashgan zargarlik ustaxonalarida qimmatbaho metall va toshlardan turli xil buyum va ayollar zebu ziynatlari yasalgan. Buxoro zargarlari oltinning quyoshning sehrli yog'dusiga qiyos qilganlar. Kumushdan maftunkor Oyning jamolini ko'rganlar. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi to's

to'polon va to'ntarishlar oqibatida zargarlik san'ati ham inqirozga yuz tutadi. Hunarmandlar ta'qib qilindi. Ildizi ming yillarga borib taqalgan zargarlik ham istiqlol sharofatidan qayta bo'y cho'zdi.



Buxorolik usta zargar Alisher Haydarov Buxoro zargarlik maktabining oldingi an'analarini qayta tiklab yangicha mazmun bilan boyitgan mohir ustadir. U bu hunar sirini bobosi mohir ustasi Abdunosir otadan o'rgandi. Bobosi ruhini shod etish maqsadida oliygojni tugatgan Alisher zargarlik hunarga o'zini bag'ishladi. Universitetni badiiy grafika fakultetini bitiruv diplom ishini ham zargarlik taqinchog'i "nozigardon" yasab himoya qildi. Mana qariyb 30 yil mobaynida u izlanishda.




U erishgan muvaffaqiyatlar bilan chegaralanib qolmay tinmay o'z ustida ishlaydi. 1000 dan ortiq zargarlik xazinasiga ega Buxoro Davlat badiiy me'morchilik muzey qo'riqxonasida namoyish etilayotgan har bir eksponantni sinchkovlik bilan o'rganib, yangidan yangi asarlar yaratdi. Uning umr yo'ldoshi Gulshod G'ulomova va o'g'illari Shahzod,

Mirshod va Abdunosirlar ota kasbini davom ettirib uylaridagi mo‘jazgina ustaxonada ijod qilishadi. Shogirdlar uchun alohida xona va stollar jihozlangan.




Alisher Haydarov “Hunarmand uyushmasi” ga a’zo bo‘lganiga qariyb 30 yil to‘ladi. Shu yillar mobaynida 10 ga yaqin shaxsiy ko‘rgazma va 20 dan ortiq xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashdi. Hamda ko‘plab diplom va sertifikatlar bilan taqdirlandi. 2009-yil uning hayotida unutilmas voqeа bo‘ldi.


Alisher Haydarov “Tashabbus” ko‘rik tanlovi Respublika bosqichi g‘olib bo‘ldi. Respublikaning birinchi Prezidenti qo‘lidan yengil avtomashina “Matiz”ning kalitini va sertifikatni olishdek ulkan baxtga sazovor bo‘ldi. Usta zargarning ishlari ko‘rgazmasi keyingi 5 yil mobaynida AQSHning Santa-Re shahrida, Fransiya, Hindiston, Olma-ota, Yaponiya, Eron, Pokistonda UNESCO Moskva va KAKSA tashkilotlari tashkil qilgan xalqaro ko‘rgazmalarda namoish qilinib keladi. Zargarning istagi VIII-XIX asrlarda Samarqand va Buxoro zargarligiga xos an’ana uslublarni qayta tiklab Buxoro zargarlik san’atini yanada rivojlantirishdir. Ustaning sevimli uslublari quyma, urib toplash, qolip, sim to‘qima (shabaka), bosma, qadama, haiskori, kandakori, zarhal, siyohat, saqich, o‘yma naqshlar, falbga va boshqalar. Kumush va oltindan yasalgan taqinchoqlarni asl marjon, dur, firuza, qimmatbahо tosh parchalari, zumrad, la'l, haqiq va har xil shishadardan zeb berib



uslublari quyma, urib toplash, qolip, sim to‘qima (shabaka), bosma, qadama, haiskori, kandakori, zarhal, siyohat, saqich, o‘yma naqshlar, falbga va boshqalar. Kumush va oltindan yasalgan taqinchoqlarni asl marjon, dur, firuza, qimmatbahо tosh parchalari, zumrad, la'l, haqiq va har xil shishadardan zeb berib



go‘zal shakllarni mazmun bilan boyitadi. Usta yaratgan 400 dan ortiq yuksak badiiy buyumlar 100 ga yaqin nomlar bilan yuritiladi. U O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15, 20 yillik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. 50 dan ortiq shogirdlar yetishtirdi. Alisher Haydarovning ishlari Yaponiya, AQSH, Fransiya, Berlin m uzeylariga, O‘zbekiston Amaliy san’ati muzeyi va ko‘plab shaxsiy kolleksiyalar(to‘plamlar)ga sotib olingan. Bu usta mahoratining yuksakligidan dalolat beradi.



2022-yilda Alisher Haydarovning benazir xizmati davlatimiz tomonidan yuksak baholanib unga “Do‘stlik ordeni” berildi. Buxoroda bo‘lib o‘tgan Xalqaro Zargarlik, zardo‘zlik va ana’naviy kashdachilik festivalida ma’danga badiiy

ishlov berish sa'ati yo'nalishida 70 ta mamlakat zargarlari o'rtasida birinchi o'rinni egalladi va festival g'olibligini qo'lga kiritdi. Zargar ijodining ayni gullagan davri mustaqilligimiz yillariga to'g'ri keldi. Ustaning maqsadi qadimdan o'zining yuksak badiiyligi bilan mashhur bo'lgan Buxoro maktabining boy ananalarini butun bo'yli - basti bilan qayta tiklab kelajak avlodga yetkazishdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ma'danga bitilgan qo'shiq (A.A.Hakimov va boshqalar) – T., 1985.
2. Faxriddinova D. A Dekorativno prikladnoe iskusstvo Uzbekistana – T., 1972.
- 3.O'zbekiston amaliy san'ati. – T., 2003
- 4.Hakimov A. A Iskusstvo Uzbekistana istoriya i sovremennost. – T., 2010.
- 5.Buxoro davlat badiiy - me'moriy muzey qo'rniqxonasi T.2004